
BILASIZMI?



Bilasizmi?

Xodim iltimosiga ko'ra quyidagi holatlarda boshqa ishga o'tkazilishi kerak:

sog'lig'iga ko'ra yengilroq ishga o'tkazishga oid tibbiy xulosa bo'lganida;

homilador ayolni vaqtincha yengilroq yoki noqulay ishlab chiqarishdan xoli ishga o'tkazish bo'yicha tibbiy xulosa bo'lsa;

2 yoshga to'lmagan bolasini parvarishlayotgan ota-onaning biri (vasiy) tomonidan avvalgi ishini bajarish mumkin emasligi;

boshqa uzrli sabablarda va bunday ish ish beruvchida mavjud bo'lganda.

Xodim tashabbusiga ko'ra vaqtincha boshqa ishga o'tkazish uchun uzrli sabablar ro'yxati jamoa shartnomasida belgilanishi mumkin.

Xodim tibbiy xulosaga muvofiq yengilroq yoki noqulay ishlab chiqarishdan xoli boshqa doimiy ishga o'tkazishga muhtoj bo'lsa, ish beruvchida bo'sh ish o'rni bo'lsa xodim boshqa doimiy ishga o'tkazilishi kerak.

So'x tuman hokimligi Axborot xizmati

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-12-23 17:15:46